

XALQARO BUXGALTERIYA AUTSORSING KOMPANIYALARI UYUSHMASINING AXLOQ KODEKSI

1-BO‘LIM. KODEKSNING MAQSADLARI VA VAZIFALARI

1.1. Axloq kodeksi Xalqaro buxgalteriya autsorsing kompaniyalari uyushmasining barcha a‘zolari va uning xodimlari, shu jumladan pudratchilari uchun majburiy hisoblanadi.

1.2. Kodeks buxgalter kasbiga ishonchni mustahkamlashga, o‘zaro aloqalarning shaffofligiga, mijozlarni himoya qilishga va O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga rioya qilishga qaratilgan kasbiy axloq normalarini o‘rnatadi.

2-BO‘LIM. ASOSIY AXLOQ TAMOYILLARI

- Halollik va xolislik
 - Kasbiy omilkorlik va lozim darajadagi ehtiyotkorlik
 - Ma‘lumotlar maxfiyligi
 - Kasbiy mustaqillik
 - Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik
 - Kasbiy xulq-atvor
 - Mijoz va jamiyat oldida mas‘uliyat
 - Boshqa firmalarning narx siyosatiga hurmat
 - Mijozlar va xodimlarni o‘ziga og‘dirishni taqiqlash
 - Amaldagi qonunchilikka va xalqaro standartlarga rioya qilish
-

3-BO‘LIM. MIJOZLARGA NISBATAN MUNOSABAT

3.1. A‘zolar kasbiy mustaqillik va qonun talablariga rioya qilgan holda, mijoz manfaatlari yo‘lida harakat qilishlari shart.

3.2. Mijozning ruxsatisiz ma‘lumotlarni oshkor etishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonunda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

3.3. Mijozga to‘liq bo‘lmagan, buzilgan ma‘lumotlarni taqdim etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.4. A‘zolar manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlardan saqlanishlari shart. Ular yuzaga kelganida - mijozni darhol xabardor qilish.

3.5. Subpudratchilardan foydalanishda yakuniy natija uchun javobgarlikni Uyushma a‘zosining zimmasida bo‘ladi. Mijoz uchinchi shaxslar jalb qilinganligi haqida xabardor qilinishi shart.

4-BO‘LIM. AUTSORSING AXLOQI

- 4.1. Bajarilayotgan ish uchun javobgarlik jalb qilingan mutaxassislardan qat’iy nazar Uyushma a’zosining zimmasiga yuklatiladi.
 - 4.2. A’zolar barcha kasbiy standartlarga rioya etilishini ta’minlashi shart.
 - 4.3. Mijoz bilan munosabatlar ochiqlik, shaffoflik, muddatlarga va majburiyatlarga rioya etishda quriladi.
 - 4.4. Mijoz ma’lumotlarini himoyalash - ustuvor.
 - 4.5. Mijozning ma’lumotlarini uning yozma ruxsatisiz uchinchi shaxslarga uzatishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonun bilan ko‘zda tutilgan holatlar bundan mustasno.
-

5-BO‘LIM. KASBIY RIVOJLANISH

- 5.1. A’zolar o‘z bilimlarini muntazam yangilab borishlari, qonunchilik, buxgalteriya va soliq normalarini o‘zgarishlari ustidan kuzatib borishlari shart.
 - 5.2. Majburiy har yillik malaka oshirish: yiliga kamida 20 soat.
 - 5.3. Milliy va xalqaro sertifikatlashdan o‘tishni qo‘llab-quvvatlaydi.
-

6-BO‘LIM. MANFAATLAR TO‘QNASHUVI

- 6.1. Manfaatlarni to‘qnashuvi ehtimoli aniqlangan holatda A’zolar ularni bartaraf qilish bo‘yicha choralarni ko‘rish qat’iyan tavsiya etiladi.
 - 6.2. Har bir to‘qnashuv haqida mijozni yozma shaklda xabardor qilish lozim.
 - 6.3. Uyushma manfaatlarni to‘qnashuvining ichki reyestrini yuritib boradi.
-

7-BO‘LIM. MAXFIYLIK VA MA’LUMOTLAR HIMOYASI

- 7.1. Uyushmaning barcha a’zolari O‘zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida"gi Qonunga rioya qilishlari shart. Mijozlar haqidagi ma’lumotlar yozma roziliksiz uchinchi shaxslarga uzatilmaydi kerak.
 - 7.2. Mijozlarning ma’lumotlarini saqlovchi barcha elektron va jismoniy ma’lumot tashuvchilar axborot xavfsizligi normalariga rioya qilingan holda saqlanishi lozim.
 - 7.3. Kontrakt yakunlanganida mijoz buxgalteriya hisobini keyinchalik to‘laqonli va to‘g‘ri yuritish uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarni so‘rash huquqiga ega.
-

8-BO‘LIM. KASBIY XULQ-ATVOR

8.1. Uyushma a‘zolari mijozlar, hamkasblar va uchinchi shaxslarga nisbatan o‘zlarini xushmuomala, hurmat bilan tutishlari shart.

8.2. Buxgalter kasbini va Uyushma obro‘sigga putur yetkazuvchi xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

8.3. Raqobatchilar va mijozlar haqida soxta ma‘lumotlarni tarqatish taqiqlanadi.

9-BO‘LIM. NAZORAT VA SANKSIYALAR

9.1. Kodeksni buzganlik uchun quyidagi choralar ko‘zda tutilgan:

- yozma ogohlantirish;
- a‘zolikni vaqtincha to‘xtatish;
- Uyushmadan chiqarib yuborish.

9.2. Intizomiy choralarni qo‘llash haqidagi qaror ichki tergov va tomonlarning tushuntirishlari asosida Uyushmaning Axloq qo‘mitasi tomonidan qabul qilinadi.

9.3. Uyushmaning har qanday a‘zosi yoki mijoz shikoyat kiritishi mumkin. Shikoyatlar 30 kalendar kungacha bo‘lgan muddat davomida ko‘rib chiqiladi.

9.4. Axloq qo‘mitasining qarori ustidan Uyushmaning Apellyatsiya komissiyasiga shikoyat kiritilishi mumkin.

10-BO‘LIM. IJTIMOIIY MAS‘ULIYAT

10.1. Uyushma a‘zolari soliqlarni to‘lashdan bosh tortish, daromadlarni legallashtirish va boshqa noqonuniy faoliyatlarni amalga oshirish sxemalarida ishtirok etmaslik mas‘uliyatini zimmasiga oladi.

10.2. Assotsiatsiya a‘zolarining ma‘rifat va xayriya faoliyatida ishtirokini qo‘llab-quvvatlaydi.

11-BO‘LIM. XALQARO STANDARTLAR BILAN ALOQALAR

11.1. Ushbu Axloq kodeksi Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (IFAC), shu jumladan Malakali buxgalterlarning axloq kodeksi (IESBA) tamoyillariga asoslangan.

11.2. Milliy va xalqaro normalar o‘rtasida to‘qnashuv mavjud bo‘lishida O‘zbekiston Respublikasi normalari ustunlikka ega, kelishuvlar bilan bevosita ko‘zda tutilgan holatlar bundan mustasno.

12-BO'LIM. KIRISH VA MAJBURIYATLAR

12.1. Uyushmaning har bir a'zosi ushbu kodeksga rioya qilish haqidagi majburiyatni imzolaydi. U Uyushmaning ustav hujjatlarini ajralmas qismi hisoblanadi.

12.2. Kodeks ikki yilda kamida bir marta a'zolarning umumiy yig'ilishida qayta ko'rib chiqilishi va unga qo'shimchalar kiritilishi mumkin.